



## 2021- yil yanvar-dekabr oylari uchun Samarqand viloyatida qurilish ishlari

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida Samarqand viloyatida jami 7228,3 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati 2020- yilning yanvar- dekabr oylariga nisbatan 115,2 % ni tashkil etdi.




### 2021- yil yanvar-dekabr oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi % da



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.


Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat boʻlgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi boʻyicha boʻlinadi.



**Maʼlumot uchun:** qurilish ishlari hajmi bu – oʻz kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



**2021- yil yanvar-dekabr oylarida mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari hajmi**



**Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni**

2022- yil 1- yanvar holatiga ko'ra qurilish sohasida ro'yxatdan o'tgan jami korxonalar va tashkilotlar soni 3,4 mingta, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni esa, 3,3 mingtani tashkil etib, o'tgan 2020- yilning mos davriga nisbatan 201 taga ko'paygan.

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan fuqarolik obyektlarini qurilishi ishlari hajmi 3,5 martaga ko'payib (jami qurilishdagi ulushi 52,2 %) ni tashkil qildi. Bu qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar sonining ko'payishiga asosiy omil bo'lib xizmat qildi.

Fuqarolik obyektlarini qurilishi bo'yicha qurilish ishlarining eng yuqori ulushi kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar-dekabr oylaridagi jami qurilish ko'rsatkichiga nisbatan 41,8 % ni tashkil etdi.




**Samarqand viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan  
qurilish korxonalari soni (birlikda)**

	Holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, (+,-)
	01.01.2021- yil	01.01.2022- yil	
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>3079</b>	<b>3280</b>	<b>201</b>
Samarqand sh.	1079	1128	49
Kattaqo'rg'on sh.	105	122	17
tumanlar:			0
Oqdaryo	145	158	13
Bulung'ur	68	74	6
Jomboy	120	134	14
Ishtixon	144	144	0
Kattaqo'rg'on	120	135	15
Qo'shrabot	67	70	3
Narpay	85	86	1
Payariq	248	271	23
Pastdarg'om	308	302	-6
Paxtachi	65	72	7
Samarqand	136	150	14
Nurobod	43	63	20
Urgut	213	233	20
Toyloq	133	138	5



**Samarqand viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan  
qurilish korxonalarining hududlar kesimida  
ulushi (% da), 01.01.2022- yil holatiga**




**Ma'lumot uchun:** Viloyatda qurilish korxonalari soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan hududlar Samarqand shahri (34,4 %), Pastdarg'om (9,2 %) va Payariq (8,3 %) tumanlaridir.



2021- yilning yanvar-dekabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **1118,9** mlrd. soʻmni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 96,5 % ni tashkil qilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2020- yilning mos davridagi nisbatan ulushi 15,5 % ni tashkil qildi.




### Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jamiga nisbatan ulushi, %da



**Ma'lumot uchun:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Toyloq tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **42,7%**i), Pstdarg'om tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **31,1** %i), Samarqand shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **11,9** %i), va Bulung'ur (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **6,0%**) tumanlarga to'g'ri keldi.



## Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi, % da



Kichik korxonalar va mikrofirmalar

- 2021- yil yanvar-dekabr
- 2020- yil yanvar-dekabr


Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2021- yil yanvar-dekabr oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan ko'payganligi kuzatildi. Ular tomonidan jami qurilish ishlari hajmining **63,4 %i** bajarilib, 2020- yilning yanvar-dekabr oylari ko'rsatkichiga nisbatan **6,4 %** punktga ko'paygan.

Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **128,5 %** ni tashkil etgan holda **4580,6** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlaridagi ulushi **21,1 %** ni tashkil etib, **1528,8** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2020- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan kamayish kuzatilib, **98,5 %** ni tashkil etdi.



## Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **213,8** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilgan boʻlib, oʻsish surʻati 2020- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **58,0 %** ni tashkil qilib, jami amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi **3,0 %** ni tashkil etdi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **7014,5** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati **118,8 %** ni va jami amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi **97,0%** ni tashkil etdi.



## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat boʻlgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, % da



Davlat mulki



Nodavlat mulk



## Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

2021- yil yanvar-dekabr

71,6 %

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurish bo'yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlarining **71,6%** yoki **5175,6** mlrd. so'mni tashkil etgan.

20,8 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **1076,9** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **20,8 %** ni tashkil etdi.

51,2 %

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **2649,8** mlrd. so'm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **51,2%** ni tashkil etdi.

28,0 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasiga **1448,9** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **28,0%** ni tashkil etdi.





**Hududlar kesimida qurilish ishlari  
2021- yil yanvar-dekabr oylarida**

	<b>Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)</b>	<b>O'sish sur'ati, %da</b>	<b>Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari (mlrd. so'm)</b>
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>7228,3</b>	<b>115,2</b>	<b>5175,6</b>
Samarqand sh.	2288,0	109,1	1611,6
Kattaqo'rg'on sh.	201,7	107,7	143,8
tumanlar:			
Oqdaryo	420,7	129,9	331,5
Bulung'ur	319,9	145,6	193,1
Jomboy	250,2	155,3	201,4
Ishtixon	331,4	116,1	253,2
Kattaqo'rg'on	196,2	107,6	147,0
Qo'shrabot	187,1	118,6	141,0
Narpay	169,0	101,1	135,9
Payariq	465,0	112,7	354,0
Pastdarg'om	642,2	115,8	411,8
Paxtachi	194,2	105,2	141,0
Samarqand	503,0	123,5	379,2
Nurobod	140,7	125,7	95,5
Urgut	350,4	111,7	261,0
Toyloq	568,6	112,6	374,6

\*Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda



## Samarqand viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari, %da

2020- yil yanvar-dekabr

7,3



Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

19,1



Fuqarolik obyektlarini  
qurilishi

73,6



Bino va inshootlarni  
qurilishi

2021- yil yanvar-dekabr

2,8



Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

52,2



Fuqarolik obyektlarini  
qurilishi

45,0



Bino va inshootlarni  
qurilishi

**Ma'lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




## Bino va inshootlar qurilishi

ulushi %da

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **20,9 %** ni tashkil etib, 2020- yilning yanvar-dekabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **12,8 %** punktga ko'paydi. Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2020- yilning yanvar-dekabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **1,1 %** punktga kamaydi, **32,1 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2020- yilning yanvar-dekabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **10,7 %** punktga kamayib, **47,0 %** ni tashkil etdi.






## Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

ulushi %da

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **11,2 %** ni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **26,1 %** punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **88,7 %** (**26,4 %** punktga ko'paydi) hamda norasmiy sektorning ulushi **0,1 %**ni tashkil etdi.






## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

ulushi % da

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **8,0 %** ni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **5,3 %** punktga kapaydi. **92,0 %** ulush kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2020- yilning mos davriga nisbatan **5,3 %** punktga kamaydi.





## Hududlar kesimida qurilish ishlari 2021- yil yanvar-dekabr oylarida

### Eng yuqori hajm

(mlrd. so'm)

1 Samarqand sh.  
2288,0

2

3 Pastdarg'om  
642,2

1

2 Toyloq  
568,6

3



### Eng kichik hajm

(mlrd. so'm)

1 Nurobod  
140,7

2

3 Narpay  
169,0

1

2 Qo'shrobot  
187,1

3





**Samarqand viloyati  
Statistika boshqarmasi**

**Investitsiya va qurilish statistikasi  
bo'limi**

*Aloqa telefoni: (66) 230-45-32*

